



PIRIMQUL QODIROV TARIXIY ROMANLARIDA ONOMASTIK BIRLIKLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Sottorova Nilufar Tura qizi

Osiyo texnologiyalar universiteti 1-bosqich magistranti.

sottorovanilufar94@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyondasi Pirimqul Qodirov tarixiy romanlarida qo'llangan onomastik birliklarning badiiy-estetik vazifasi tahlil qilinadi. Xususan, Yulduzli tunlar, Avlodlar dovoni romanlaridagi antroponimlar, toponimlar hamda tarixiy nomlarning asar g'oyasini yoritishdagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, yozuvchining tarixiy haqiqat va badiiy talqinni uyg'unlashtirishdagi mahorati onomastik vositalar asosida yoritiladi.

Калит so'zlar: Onomastika, antroponim, toponim, tarixiy roman, Pirimqul Qodirov, badiiy tasvir, tarixiylik.

Аннотация. В данной статье анализируются художественные и семантические особенности ономастических единиц в исторических романах Пиримкула Кадырова. Особое внимание уделяется антропонимам и топонимам в произведениях "Юлдузли тунлар" и "Авлодлар довони" их роли в раскрытии исторической достоверности, национального духа и характеров героев. Также рассматривается мастерство писателя в сочетании исторической правды и художественного вымысла.

Ключевые слова: ономастика, антропоним, топоним, исторический роман, Пиримкул Кодыров, художественное изображение, историзм.



Abstract. This article analyzes the artistic and semantic features of onomastic units in the historical novels of Pirmkul Kodirov. Particular attention is paid to the role of antroponyms and toponyms in the novels "Yulduzli tunlar" and "Avlodlar dovoni" in expressing historical authenticity, national spirit and character portrayal. The article also highlights the writer's skill in combining historical reality with artistic interpretation.

Keywords: onomastics, anthroponym, toponym, historical novel, Pirmkul Kodirov, artistic depiction, historicity.

Kirish. O'zbek adabiyotida tarixiy roman janri milliy tarixni, xalqning ma'naviy merosini hamda tarixiy shaxslar faoliyatini badiiy talqin qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Pirmkul Qodirov ijodi alohida o'rin tutadi. Adib o'zining tarixiy romanlari orqali o'tmish voqealarini jonli tasvirlash bilan birga, tarixiy shaxslar ruhiyati va davr muhitini mahorat bilan ochib beradi. Ushbu jarayonda onomastik birliklar muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Onomastik tilshunoslikning atoqli otlarni o'rganuvchi sohasi bo'lib, antroponimlar, toponimlar, etnonimlar va boshqa nom birliklarini qamrab oladi. Tarixiy romanlarda esa bunday birliklar nafaqat nominativ vazifa bajaradi, balki davr ruhini yaratish, milliy koloritni ifodalalsh hamda qahramon xarakterini ochishda ham muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Pirmkul Qodirov romanlarida antroponimlar tarixiy haqiqatni tiklashning asosiy vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Yulduzli tunlar romanida tarixiy shaxs nomlari keng qo'llanilgan. Asarda Z.M.Bobur obrazi markaziy o'rinda turadi. Bobur nomining tez-tez takrorlanishi uning tarixiy shaxs sifatidagi salobatini kuchaytiradi hamda o'quvchini tarixiy muhitga olib kiradi. Shuningdek, asarda Humoyun, Akbarshoh, A. Navoiy kabi tarixiy shaxslarning



nomlari ham muhim semantik yuk tashiydi. Ushbu antroponimlar orqali muallif tarixiy davomiylik va sulolaviy bog'liqlikni tasvirlaydi.

Romanlarda ayrim qahramonlarning ism tanlanishi ham ramziy ma'no kasb etadi. Masalan, Tohir, Robiya singari nomlar xalqchil ruhni ifodalasa hukmdor va amaldorlar nomlari siyosiy muhitni aks ettiradi. Bu esa yozuvchining nom tanlashdagi estetik mahoratini ko'rsatadi.

Tarixiy romanlarda toponimlar voqealar makonini aniq tasvirlash bilan birga tarixiy davr koloritini yaratishda ham muhim o'rin tutadi. "Yulduzli tunlar" romanida Andijon, Samarqand, Hirot, Hindiston kabi geografik nomlar tarixiy voqealar bilan uyg'un holda tasvirlangan.

Mazkur toponimlar orqali muallif Boburiylar davrining, siyosiy, geografik hududini keng ko'lamda aks ettiradi. Ayniqsa, Samarqand nomi buyuk orzu va hokimiyat ramzi sifatida gavdalanadi. Boburning Samarqand uchun olib borgan kurashlari asarning asosiy syujet chiziqlaridan birini tashkil qiladi. Bundan tashqari, Kobul va Hindiston toponimlari Bobur hayotidagi yangi bosqichlarni ifodalovchi ramziy makon sifatida namoyon bo'ladi. Demak, toponimlar nafaqat joy nomi, balki qahramon taqdiri bilan bog'liq badiiy unsur vazifasini ham bajaradi. Tarixiy roman uchun ishonchlilik va tarixiylik muhim mezon hisoblanadi. Pirimqul Qodirov tarixiy nomlardan foydalanish orqali asarning tarixiy asosini mustahkamlaydi. Haqiqiy tarixiy shaxs shaharlar va sulola nomlari o'quvchida ishonch hissini uyg'otadi.

Yozuvchi onomastik birliklarni tanlashda tarixiy manbalarga tayanganligi seziladi. Bu esa romanlarning ilmiy va badiiy qiymatini oshiradi. Adibning tarixiy romanlari o'zbek tarixiy romanchiligining yirik namunalariidan biri sifatida baholanadi.

Romanlarda qo'llangan nomlar xalqning milliy tafakkuri, urf-odatlar va madaniy qarashlarini ham aks ettiradi. O'zbek xalqiga xos ism va joy nomlari asarlarda milliy ruhni kuchaytiradi. Ayniqsa, temuriylar davriga oid nomlarning



qo'llanilishi tarixiy xotirani tiklashga xizmat qiladi. Mazkur ayrim nomlar orqali milliy g'urur va tarixiy meros tushunchalarini ilgari suradi. Shu jihatdan onomastik birliklar asarning g'oyaviy- badiiy tizimida muhim o'rin egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, Purimqul Qodirov tarixiy romanlarida onomastik birliklar muhim badiiy estetik vazifa bajaradi. Antroponimlar va toponimlar orqali yozuvchi tarixiy davr ruhini yaratadi, qahramon xarakterini ochadi hamda milliy tarixni badiiy talqin qiladi. Onomastik birliklar romanning tarixiylik darajasini oshirib o'quvchini o'tmish muhitiga olib kiradi. Shu sababli P. Qodirov asarlaridagi nom birliklari nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bobur Z.M. Boburnoma. - Toshkent: Yangi asr avlodi. 2018.
2. Begmatov E. O'zbek onomastikasi asoslari. Toshkent: Fan. 2010.
3. Nurullayeva S. Adabiyotshunoslikka kirish. - Toshkent: O'zbekiston. 2012.
4. Mamajonov A. Tarixiy roman va tarixiy haqiqat. - Toshkent: Fan, 1990.
5. Qodirov P. Avlodlar dovoni. -Toshkent: Sharq nashriyoti. 2018.
6. Qodirov P. Yulduzli tunlar. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2018.
7. Qo'chqorov O. O'zbek romanchiligi tarixi. -Toshkent: O'zMU nashriyoti. 2006.
8. Sottorova N. P. Qodirovning Yulduzli tunlar romanida toponimlarning badiiy va tarixiylik xususiyatlari. Scholar. (ISSN 2181- 4147) Published January 11.
9. [https/ tafakkur. net](https://tafakkur.net).
10. [www. ziyonet. uz](http://www.ziyonet.uz). kutubxonasi.